

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Umumiy fizika va qurilish muhandisligi” kafedrası

Ochiq dars tahlili

B A Y O N N O M A S I

Qatnashdilar: Umumiy fizika va qurilish muhandisligi” kafedrası o‘qituvchilari

O‘qituvchi: Safarov Faxriddin

Fan: Fizpraktikum2

Guruh: 6F-2024

Mavzu: Havoning ichki ishqalanish koeffitsiyentini va molekulalarning o‘rtacha erkin yugurish yo‘li uzunligini aniqlash.

Sana: 4.04.2025 yil

Maqsad: Talabalarga gazlar kinetik nazariyasi asosida havoning ichki ishqalanish koeffitsiyentini va molekulalarning o‘rtacha erkin yugurish yo‘li uzunligini tajriba orqali aniqlashni o‘rgatish, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish.

Darsning borishi:

Dars odatdagidek salomlashish bilan boshlandi, talabalar davomati aniqlandi. Laboratoriya uchun zarur bo‘lgan jihozlar tayyor holatda ekanligi tekshirildi. So‘ng dars mavzusi va mashg‘ulot maqsadi e‘lon qilindi.

Oldingi darsda bajarilgan “Universal gaz doimiysini aniqlash” laboratoriya ishi yuzasidan qisqacha savol-javob o‘tkazildi. Bunda “Insert” hamda “Klaster” metodlari asosida talabalar avvalgi tajriba natijalari va xulosalarini yodga oldilar.

Laboratoriya ishining nazariy asosi talabalarga tushuntirildi. Havoning ichki ishqalanish koeffitsiyenti va molekulalarning o‘rtacha erkin yugurish yo‘li uzunligini aniqlashga oid asosiy formulalar keltirib chiqarildi. Ishni bajarish ketma-ketligi, texnika xavfsizligi, o‘lchash aniqligi va xatoliklarni hisoblash usullari tushuntirildi.

Laboratoriya ishining bajarilish ketma-ketligi bosqichma-bosqich tushuntirildi. Bitta talaba ishtirokida namunaviy tajriba bajarilib ko‘rsatildi. Olingan natijalarning aniqligi, xatoliklarni hisoblash usullari tahlil qilindi. Dars davomida “Blits-so‘rov”, “Grafik tahlil”, va “Juftlikda ishlash” metodlaridan foydalanildi.

Faol ishtirok etgan talabalar rag‘batlantirildi va baholandi. Uyga vazifa sifatida talabalarga ushbu mavzuga doir virtual laboratoriya ishini bajarib ko‘rish, hamda olingan natijalarni real tajriba solishtirgan holda tahlil qilish vazifasi yuklatildi.

O'qituvchi dars reglamentini to'g'ri taqsimladi, talabalarga savollar berish orqali auditoriyani muloqotga keltirdi. Dars mazmunli va samarali o'tti.

Kafedra mudiri:

Kotiba:



E. Yusupov

Sh. Zamonova